

Ibaydullaev Qudratillo,

Andijon davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrası professori vazifasini bajaruvchisi, falsafa fanlari nomzodi

Qudratillayev Odilbek,

Andijon shahar 1-son politexnikumi talabasi, "Prezident iqtidorli farzandlari" Milliy dasturi ishtirokchisi

IQTIDORLI YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING MAMLAKAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI

UO'K 371

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_2_6](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_2_6)

IBAYDULLAEV Q., QUDRATILLAYEV O. IQTIDORLI YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING MAMLAKAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Mazkur tadqiqotda insoniyat tarixida muntazam ravishda yoshlarning ta'lim va tarbiyasi ustuvor vazifa sifatida e'tibor qilinganligi sabablari, uning yurt taraqqiyotida hal qiluvchi roli borligiga e'tibor qilinganligi o'rganilgan. Ushbu mamlakat kelajagini o'ylagan muhim dolzarb masala, davr rahbarlari, olimlari, mutafakkirlarining diqqat markazida bo'lganligi va natijada ilm-fan, iqtisodiyot, san'at, madaniyat kabi barcha sohalarida salmoqli yutuqlarga erishilganligi Birinchi va Ikkinchi Renessans misolida ko'rsatilgan.

Maqolada, ayniqsa iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tutgan roli tahlil qilinadi. Yosh avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va innovatsion muhit yaratish orqali barqaror kelajakni ta'minlash muhimligi ko'rsatib berilgan.

Bugungi tahlikali va ziddiyatli globallashuv zamonida yosh avlodni zamonaviy ilg'or bilimlar, innovatsion texnologiyalar bilan qurollantirish mamlakat taraqqiyotida muhim "Hayot va mamot" masalasiga aylanganligi amalga oshirilayotgan islohotlar misolida ochib berilgan.

Kalit so'z tushunchalar: Renessans, iqtidor, innovatsiya, intellektual salohiyat, taraqqiyot, globallashuv, kelajak, strategiya, jadidchilik, integratsiya, inson kapitali, startap, g'oya.

ИБАЙДУЛЛАЕВ К., КУДРАТИЛЛАЕВ О. РОЛЬ ПОДДЕРЖКИ ОДАРЁННОЙ МОЛОДЁЖИ В РАЗВИТИИ СТРАНЫ

В данном исследовании были изучены причины, по которым образование и подготовка молодежи регулярно рассматривались как приоритетная задача в истории человечества, а также тот факт, что они играют решающую роль в развитии страны. Пример I-II Возрождения показывает, что этот важный и неотложный вопрос, касавшийся будущего страны, был в центре внимания лидеров, ученых и мыслителей того времени, и в результате были достигнуты значительные успехи во всех областях, включая науку, экономику, искусство и культуру.

В статье анализируется роль поддержки особо одаренной молодежи в социально-экономическом развитии страны. Показана важность развития интеллектуального потенциала молодого поколения, повышения качества образования и обеспечения устойчивого будущего путем создания инновационной среды.

Пример проводимых реформ показывает, что в сегодняшнюю опасную и противоречивую эпоху глобализации обеспечение молодого поколения современными передовыми.

Ключевые слова и понятия: Ренессанс, талант, инновация, интеллектуальный потенциал, развитие, глобализация, будущее, стратегия, интеграция, человеческий капитал, стартап, феномен, идея.

IBAIDULLAEV K., KUDRATILLAEV O. THE ROLE OF SUPPORTING GIFTED YOUTH IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY

This study explored the reasons why education and training of youth have consistently been prioritized throughout human history, as well as the fact that they play a crucial role in national development. The example of the 1st and 2nd Renaissance shows that this important and urgent issue concerning the future of the country was the focus of the leaders, scientists and thinkers of the time, and as a result, significant advances were made in all areas, including science, economics, art and culture

This article analyzes the role of supporting exceptionally gifted youth in the country's socioeconomic development. It demonstrates the importance of developing the intellectual potential of the younger generation, improving the quality of education, and ensuring a sustainable future by creating an innovative environment.

The example of the reforms being carried out shows that in today's dangerous and contradictory era of globalization, providing the younger generation with modern advanced.

Keywords and concepts: Renaissance, talent, innovation, intellectual potential, development, globalization, future, strategy, innovation, integration, human capital, startup, idea.

"Birinch va ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo'lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarida mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarishga qodirsiz. Sizlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz"¹¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Kirish. Ma'lumki, Uyg'onish davri (Renessans) Osiyo, Markaziy Osiyo (IX-XII va XV-asrlar) va Yevropada (XIV-XVI asrlar) insoniyat tarixiga oltin harflar bilan bitilgan. Insoniyat tarixida ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, kasb-hunar, san'at gurkirab taraqqiy etgan Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari dunyo xalqlari uchun, o'z mamlakatini gullab-yashnashi, taraqqiyoti uchun ulug' bir ne'mat sifatida xizmat qilayotganligi, haqiqat.

Hozirgi tahlikali va ziddiyatli globallashuv zamonida davlatlar o'rtasidagi raqobat tabiiy resurslar yoki geografik imkoniyatlar bilan emas, balki inson kapitali, xususan, yoshlarni

ing bilim va iqtidori bilan ham belgilanayotganligi bejiz emas, albatta. Shu nuqtai nazardan olganda, iqtidorli yoshlar har qanday mamlakat va millat kelajagining asosiy poydevori hisoblanadi. Ular jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, ilm-fan, iqtisod va ma'naviyat va madaniyat sohalarida yangiliklar yaratishga qodir insonlardir, shubhasiz.

Masalaning dolzarbligi shundaki, ajdodlarimiz pand hamda nasihatlariga va, ayniqsa, jadid bobolarimiz erisha olmagan orzu niyatlari istiqlol tufayli yetishish imkoniyati ochib berilganligida. Davlatimiz tomonidan millatimiz yoshlarini ta'limi va tarbiyasiga e'tibor qilish ustuvor vazifa ekanliga anglab, bu boradagi sa'y-harakatlarni ro'yobga chiqayotganligini e'tirof etish.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. // Xalq so'zi. 30.06.2025 y.

Maqsad. Ushbu xayrli, kelajak, yurt uchun amalga oshirilayotgan ishlarda nafaqat davlat organlari, balki butun jamiyat, O'zbekiston xalqi munosib hissalarini qo'shishini, ularning milliy g'ururi va g'oyasini shakllantirishini, daxldorlik tuyg'usini singdirishdan iboratdir.

O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va ularning ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator Farmon va Qarorlari qabul qilinganligi muhim. Islohotlarning amaliy natijalari ko'zga tashlanib borayotganligini keng jamoatchilikka yetkazish zarur.

Maqolamiz yakunlanayotgan paytda ijtimoiy tarmoqlar orqali yana bir quvonchli xushxabar bilan tanishishga muyassar bo'ldik. "Raqamli avlod qizlari" loyihasining ishtirokchilari "Renessans" oromgohida zamonaviy va dolzarb yo'nalishlarda o'z bilimlarini chuqurlashtirib, amaliy ko'nikmalarini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'libdilar.

Asosiy qism. Uzoq o'tmishda - Sharq Uyg'onish davrida Xorazmiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, al-Farg'oni, ibn Sino kabi mashhur mutafakkirlar buyuk kashfiyotlar qildilar. Ibn Rushd, Muhammad G'azzoliy, Farobiyalar falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitgan bo'lsa, Rudakiy, Firdavsiy, Rumi, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi ijodkorlar o'lmas asarlar yaratib qoldirdilar. Shu bilan birga Sharq Uyg'onish davri namoyandalari Yunon olimlarining asarlarini chuqur o'rganibgina qolmasdan, ularni sharhladi. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham o'z ustozlari, deb hisoblashgan. Falsafiy an'analarga ko'ra insoniyatning "Birinchi muallimi" Arastu hisoblansa, "Ikkinchi muallimi" taxallusiga ega bo'lish Farobiyga nasib etganligi balki shundandir.

Yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga e'tiborni yaqin o'tmishimizdan yaqqol ko'rish mumkin. Bundan bir asr avval bunday noyob imkoniyat qo'ldan boy berilganligi eslab, davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev: "Ko'pchilik ziyolilar qatori men ham bir fikrni katta armon bilan o'ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renes-

sansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi", degan fikrlarni afsuslanib bejiz aytmagan edi"¹. Chunki, ma'rifatparvar jadidchilik harakatining namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat kabi ko'plab ziyolilar millatni ma'rifatli, madaniyatli bo'lishi uchun kurashgan, jonini fido qilganlar. Millatning abgor bo'lib qolishini istamaganlar. Chunki, bilimli va yaxshi tarbiya olgan yosh avlod har qanday davlatning, millatning kelajagi, boyligi, zamonaviy ibora bilan aytganda – inson kapitali yoki millatning, davlatning oltin fondidir. O'qimishli odam ma'naviyatli bo'ladi, ma'naviyat sohibi, albatta ilm olishdan ozuqa oladi. Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda, "Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir"².

Iqtidorli yoshlar — bu yuqori intellektual salohiyatga, ijodiy fikrlash qobiliyatiga va tashabbuskorlikka ega bo'lgan shaxslardir. Iqtidorli yoshlar yuqori intellektual qobiliyat, ijodkorlik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo'lib, ular jamiyatdagi murakkab muam-molarga ilmiy asoslangan yechimlar taklif eta oladi. Bunday yoshlar ilm-fan, texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda innovatsion g'oyalarni ilgari surish orqali milliy taraqqiyotga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash mamlakatning uzoq mud-datli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Iqtidorli yoshlar jamiyatning intellektual va innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Ular yuqori bilim salohiyati, tahliliy fikrlash va ijodkorlik qobiliyati bilan ajralib turadi. Bunday yoshlar ilm-fan, texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalardagi murakkab masalalarga ilmiy asoslangan yechimlar taklif etish orqali mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston yoshlari – yangi tarix yaratadigan oltin avlod. 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuvda nutqi. // Uz A., 30.06.2025 y.

² A.Avloniy. Tanlangan asarlar. – T.: «Ma'naviyat», 1998. - 48 b.

Globallashuv va raqobat kuchaygan sharoitda davlatning barqaror rivojlanishi, avvalo, inson kapitali sifati bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, iqtidorli yoshlarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va ularning salohiyatini rivojlantirish milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Iqtidorli yoshlar orqali jamiyatda ilmiy-texnik taraqqiyot jadalashib, innovatsion muhit shakllanadi.

Ta'lim tizimi va intellektual salohiyatni rivojlantirish. Iqtidorli yoshlarni shakllantirish va kamol toptirishda ta'lim tizimi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi yoshlarga faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ularda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, ilmiy tadqiqot olib borish va innovatsion yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishi zarur.

Ta'lim jarayonida ilmiy to'garaklar, fan olimpiadalari, startup loyihalar va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro ta'lim dasturlari va akademik almashinuvlar iqtidorli yoshlarning tajribasini oshirib, ularni jahon ilm-fan makoniga integratsiya qilish imkonini beradi. Natijada yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlanadi.

Ayniqsa, ilmiy to'garaklar, fan olimpiadalari, startup loyihalar, axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim usullari yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro ta'lim dasturlari va akademik almashinuvlar esa iqtidorli yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni global ilm-fan maydoniga olib chiqishga zamin yaratadi.

Shuningdek, ta'lim tizimida adolatli va shaffof baholash mexanizmlarining joriy etilishi iqtidorli yoshlarni erta aniqlash va maqsadli ravishda qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Natijada mamlakatning intellektual kapitali mustahkamlanib, uzoq muddatli taraqqiyot uchun zarur kadrlar zaxirasi yaratiladi.

Yoshlarga sifatli ta'lim-tarbiya berish, xorijiy tillarni o'rgatish, kasb egallab, hayotda munosib

o'rin topishiga ko'maklashish – Davlatning *asosiy vazifasiga* aylangan. Bunda zamon talabidan kelib chiqib, zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tufayli dastlabki, shu bilan birga salmoqli natijalarga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga qaratilgan muhim tashabbuslariga asosan:

- Beruniy nomidagi xalqaro maktab tashkil etildi;
- Milliy dastur asosida har yili eng salohiyatli uch ming o'quvchi saralanib, Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi nufuzli oliygohlariga tayyorlanadigan bo'ldi;
- "El-yurt umidi" jamg'armasi "TOP-300"talik oliygohga kirganlarning o'qish, yashash xarajatini qoplash tizimi yangi tartibda belgilandi;
- Ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika, energetika, transport, urbanizatsiya, arxitektura, qurilish, qishloq va suv xo'jaligi kabi drayver sohalar uchun kvotalar oshiriladigan bo'ldi;
- Banklar "TOP-300" talik oliygohga kirgan yoshlarga 20 ming dollargacha imtiyozli kredit berishi, sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha bank-moliya, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va energetikani yo'nalishlari uchun 100 ta loyiha amalga oshirilishi belgilab olindi;
- Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda "Bir million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturi ishga tushirildi;
- 2024 yili yurtimiz yoshlari "TOP-500"talik oliygohlarga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi;
- "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 325 ming yoshlar o'qitildi, 150 mingdan ziyod yigit-qizlar xalqaro til sertifikatlariga ega bo'ldi, bu – 2023 yilga nisbatan ikki baravar ko'p demakdir.
- 2025 yili 35 milliard dollarlik 8300 ta loyiha orqali 292 mingta ish o'rni yaratildi. Yana 500 mingta ish o'rni yaratadigan 83 milliard dollarlik loyihalar rejalashtirilgan. Natijada

jada "yashil" iqtisodiyot, sanoat, energetika, geologiya, muhandislik va boshqa sohalarda minglab mutaxassislar talab paydo bo'ladi¹.

Davlat siyosatida iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash faqat ta'lim muassasalarining emas, balki davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Bu jarayonda huquqiy asoslarni takomillashtirish, moliyaviy rag'batlantirish va institutsional mexanizmlarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Grantlar, stipendiyalar, ilmiy loyihalarni moliyalashtirish va zamonaviy infratuzilma yaratish orqali yoshlarning ilmiy va ijodiy faolligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, adolatli va shaffof tanlov tizimi joriy etilib, ochiq imkoniyatlar muhiti yoshlarning o'z yurtida qolib, uning ravnaqiga hissa qo'shishiga zamin yaratadi.

Keyingi to'qqiz yilda davlat rahbari O'zbekistonning kelajagi egalari bo'lgan yoshlarni ta'lim va tarbiyasiga, ayniqsa ularning orasidan iqtidorlilarini yoshligidanoq aniqlash, ularga amaliy yordam ko'rsatish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash va global mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida 2025 yilning 15 mayida "Prezident iqtidorli farzandlari" tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-86-sonli Farmoni² qabul qilindi.

Ta'kidlash joizki, Farmon bilan "Prezident iqtidorli farzandlari" tashabbusini qo'llab-quvvatlash bo'yicha Milliy kengash tarkibi tasdiqlanib, uning raisi etib davlat rahbari o'zi belgilab qo'yildi. Bu masalaning o'ta jiddiyligidan hamda yurtning oltin fondini shakllantirish ustuvor vazifa ekanligidan dalolat beradi.

Milliy kengashning asosiy vazifalari belgilanib, tashabbus doirasidagi ishlarining strate-

giyasini ishlab chiqish va amalga oshirish topshirig'i berildi. Farmon bilan 3 ta bo'lim va 21ta banddan iborat chora-tadbirlar, ularni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Ushbu yangi tarixiy hujjatni qabul qilishdan ko'zlangan asosiy *maqsadlar* etib quyidagilar belgilab qo'yildi:

- iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash, qo'llab-quvvatlash, mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish;
- yoshlar bilan manzilli ishlash, global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash va yurt taraqqiyoti uchun yangi innovatsion imkoniyatlar yaratish;
- iqtidorli yoshlarni yagona platformaga birlashtirib, ularning o'zaro hamkorligi, tajriba almashinuvi va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish.

Mamlakatda Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internat faoliyatini tashkil etish, «Prezident iqtidorli farzandlari» tashabbusini qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamjamiyatining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash asosiy *yo'nalishlar* deb belgilab qo'yildi³.

Farmonga asosan, "Prezident iqtidorli farzandlari" tashabbusi va uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Milliy dasturga ko'ra, 2025 o'quv yili yakunida Respublikada 9-sinfni tamomlagan o'qil-qizlar o'rtasida onlayn imtihon o'tkazildi. Imtihonda 27 mingga yaqin o'quvchilar faol ishtirok etgan bo'lsa, ulardan eng yuqori ball to'plagan 1500 nafar o'quvchi saralab Milliy dasturga qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025 yil "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" bayrami arafasida Toshkent viloyatida tashkil qilingan "Renessans" bolalar oromgohiga tashrif buyurib, iqtidorli o'quvchilar o'quv seminari o'tkaziladigan sharoitlar bilan shaxsan tanishib chiqdi va qimmatli topshiriqlar berganligi

¹ t.me / uza_uz // 21.07.2025 y.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yilning 15 mayidagi "Prezident iqtidorli farzandlari" tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-86-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-7533151>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yilning 15 mayidagi "Prezident iqtidorli farzandlari" tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-86-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-7533151>

ham yoshlar ta'limi va tarbiyasiga berilayotgan e'tiborga yaqqol misoldir¹.

"Prezident iqtidorli farzandlari" Milliy dasturi doirasida g'olib 1500 nafar o'quvchilar uchun «Renessans» oromgohida ta'limiy-ilmiy mashg'ulotlar, mahorat darslari, psixologik treninglar, ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari tashkil etildi.



Uch mavsumda tashkil etilgan seminar davomida o'quvchilar fan, texnologiya, san'at, adabiyot kabi yo'nalishlarda o'z bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Mashg'ulotlar interfaol uslubda, ijodiy topshiriqlar va jamoaviy loyihalar orqali olib borildi, ishtirokchilarning amaliy ko'nikmalarini oshirishga qaratildi.

Yoshlar dastur doirasida o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarish, yangi do'stlar orttirish, jamoaga ijtimoiy moslashish va o'z sohasida yetakchilik fazilatlarini shakllantirish sirlarini egallashlariga imkoniyat yaratildi.

Murabbiylar tinglovchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Har bir darsda ularga turli amaliy topshiriqlar berilib, o'z fikrini asoslab bera olish va tanqidiy, kreativ yondashuvni shakllantirishga urg'u berildi.

O'quv-seminar ishtirokchilari jamoaviy loyihalarda faol ishtirok etib, o'z tashabbuslarini ilgari surish, qobiliyatlarini namoyon etish bilan birga, o'zaro hamkorlikda ishlash ko'nikmalariga ega bo'ldilar.

«Renessans» oromgohida ekspertlardan iqlim muammolari, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq global va mahalliy sinovlar, shuningdek, iqlim bo'yicha harakatlarni amalga oshirish va iqlim o'zgarishining mintaqaviy xususiyatlari haqida ham bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishdi.

Alohida ta'kidlash joizki, mashg'ulotlar ingliz tilida, xorijdan taklif qilingan va maxsus tanlovdan o'tgan muallimlar, ekspertlar tomonidan olib borilganligi katta ahamiyat kasb etdi.

O'quvchilar uchun tashkil etilgan intensiv ta'limiy mashg'ulotlar yakunida ishtirokchilar buxgalteriya hisobi, biznes asoslari va zamonaviy yondashuv fanlarini chuqurlashtirib o'rganishdi. Yakunida ular o'z bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdi - o'quvchilar **"Accounting"**, **"Business"** va **"Global perspective"** yo'nalishlari bo'yicha yakuniy imtihondan o'tkazildi.



Dastur doirasidagi ishlar davom ettirilmoqda. Loyiha ishtirokchilariga joylarda maslahatchi sifatida, ilmiy rahbarlar biriktirildi. Va alohida platforma ochilib, mashg'ulotlar onlayn tarzda davom ettirilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, iqtidorli yoshlar mamlakat kelajagining mustahkam poydevoridir. Ularning intellektual va ijodiy salohiyatiga sarmoya kiritish — bu innovatsion va raqobatbardosh jamiyatni shakllantirishning eng samarali yo'lidir. Ta'lim tizimi, davlat siyosati va jamiyatning o'zaro hamkorligi asosidagina barqaror taraqqiyotga erishish mumkin.

¹ t.me / renessans_ oromgoh 16.09.2025 y.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yilning 15 mayidagi "Prezident iqtidorli farzandlari" tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-86-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-7533151>
2. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar – Yangi O'zbekiston kelajagi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston yoshlari – yangi tarix yaratadigan oltin avlod. 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuvda nutqi. // Uz A., 30.06.2025 y.
4. Ta'limni yangi bosqichga olib chiqish va yoshlar bandligini ta'minlash – asosiy maqsad. // Xalq so'zi., №187., 10.09.2025 й.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. A.Avloniy. Tanlangan asarlar. – T.: «Ma'naviyat», 1998. - 48 b.
7. t.me/uza_uz/
8. t.me/edu_uz/